

**YOSH AVLODNING MA'NAVIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING O'RNI****Soatova Rayxona Sadriiddin qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va san'at fakulteti

Pedagogika yo'nalishi talabasi

[rayhonasatova@gmail.com](mailto:rayhonasatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila, oilaning jamiyatdagi o'rni, farzandlarni ma'naviyatli bo'lib voyaga yetishidagi ahamiyati va vazifalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, farzand, yurt ravnaqi, ma'naviyat.

**Аннотация:** В данной статье говорится о семье, роли семьи в обществе, значении и задачах духовного воспитания детей.

**Ключевые слова:** Семья, общество, ребенок, национальное развитие, духовность.

**Annotation:** This article talks about the family, the role of the family in society, the meaning and tasks of the spiritual education of children.

**Key words:** Family, society, child, national development, spirituality.

Ma'lumki, mamlakatimizda yangidan yangi islohotlar, ijtimoiy hayot rivoji hamda yosh avlodni yanada kuchli, intellektual salohiyatli, barkamol bo'lishi uchun turli o'zgarishlar, dastur, loyihalar amalga tadbir etilmoqda. Bugungi kunda nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda ham yuksak tafakkurli, ma'nan sog'lom yoshlarni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya berish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada yoshlarda vatanparvarlik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, huquqiy madaniyat, adolatlilik, ziyalik, mehr-oqibatlilik kabi ezgu fazilatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hislatlarni tarkib toptirishda oila deb atalmish mustahkam qo'rg'on asosiy rol o'ynaydi. Shu sabab ham mamlakatimizda oilalar mustahkamligi, ularda nosog'lom muhit shakllanmasligi, bolalar ruhan, jimonan, psixologik jihatdan sog'lom bo'lib o'sishi uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeyini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida<sup>1</sup> **2012-yil "Mustahkam oila" davlat dasturi** qabul qilindi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risidagi 27.02.2012-yildagi 1717-sonli qarori.

Oila – ijtimoiy hayotning abadiylikni, bo'lg'usi avlodning davomiyligini, tarbiyaning uzluksiz davom etishini ta'minlaydigan, turli qadriyatlarga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan ijtimoiy makon. Oila ikki jins vakili – erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona hamda farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning tartib-qoidalarini, axloq normalarini qo'llab-quvvatlaydigan, insoniy madaniyatlarni yetkazib berib, uni rivojlantiradigan ijtimoiy guruhdir.

Chinakam ma'naviyatli oila xalqning, jamiyatning urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazib, yaxshilarini bag'rida avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ilk hayotiy tajribalarni beradi. Shu sabab ham Sharq xalqlarida oila qadimdan eng muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelinadi.

O'zbek oilalarida farzandlarning odobli, ma'naviy yetuk bo'lib yetishishida bobobuvilarning, ota-onalarning roli nihoyatda kattadir. O'zbek oilalari o'zlarining sarishtaligi, mustahkamligi, bir-birini chuqur hurmat qilishi, bolajonligi, mehmondo'stligi, qarindosh-urug'larga mehr-oqibatligi bilan alohida ajralib turadi.

Tarbiyaning murakkabligi haqida **Amir Temur: «Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chuqurroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosil qildim»** - desa, **Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida tarbiyaning ahamiyatiga: «Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir»,** - deb katta baho beradi, tarbiyani oiladan shakllantirib borish kerakligi, buning uchun ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerakligi haqida uqtiradi.<sup>2</sup>

Yuksak ma'naviyatning, tarbiyaning poydevori oilada shakllanadi. Shu sabab ham ota-onalar farzand tarbiyasiga alohida e'tiborli bo'lishi lozim. Oilaviy tartibotning tashqi ko'rinishi - o'zboshimchalik bilan ish tutish ham, g'azab ham, baqiriq-chaqiriq ham, iltijo ham, yalinib-yolvorishlar ham emas, balki osoyishtalik, jiddiylik va ishbilarmonlik bilan qilingan farmoyishdan iborat bo'lmog'i kerak. Bunday farmoyish berish huquqi oila a'zolarining yoshi ulug' vakili sifatida ayni sizga berilganligi xususida o'zingizda va vaa bolalaringizda hech bir shubha qolmasligi kerak.<sup>3</sup>

Ota-onalar tomonidan va'da berilgan ishlarni aytilgan vaqtda bajarishlari, farzandiga biror yumushni mustaqil bajarishda imkon yaratishlari bolalarda ishonch, uddaburonlik kabi hislatlarning tarkib topishida asos bo'la oladi. Oilada barcha farzandlarga bir xil munosabatda bo'lish, qo'llab-quvvatlash, mehr berish lozim. Shunda bir-biriga nisbatan hasad, adovat, ziqnalik kabi illatlar shakllanishini oldini oladilar. Bundan tashqari ota yoki ona biror yumush bajarish davomida farzandlar ko'magidan foydalansa, barchasini birlikka chaqirib, ishlarni teng taqsimlab bersa, farzandlarda ahillik, birlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bolalarga bilmagan narsalarini sokin ohangda, qo'pol gapirmasdan, urushmasdan tushuntirilsa, yangi bilim, ma'lumotlarni olishga bo'lgan ishtiyoqi so'nmaydi.

<sup>2</sup> Ch. Sulaymonova, D. Ergasheva. (2023). Oila farzand tarbiyasi. "SCIENCE AND EDUCATION" SCIENTIFIC JOURNAL. Vol.4, Issue 5, 1089-1094-betlar.

<sup>3</sup> Ch. Sulaymonova, D. Ergasheva. (2023). Oila farzand tarbiyasi. "SCIENCE AND EDUCATION" SCIENTIFIC JOURNAL. Vol.4, Issue 5, 1089-1094-betlar.

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, bolalik travmalari bilan ulg'aygan insonlar xudbin, doim pessimistik kayfiyatda yuradigan, narsist, egoist yoki o'zgarlar fikriga qaram bo'lib qolgan insonlarga aylanadilar. Bunday "toksik" insonlar kelgusida ota-onaga aylansa ham farzandlariga o'zidagi illatlarni meros qoldiradi. Er-xotin bir-birini doim qo'llab-quvvatlasa, mehribon bo'lsa, farzandlar ham ulardan o'rnak oladi, bolaligi quvonchli damlarga boy bo'ladi.

Ma'naviyati yuksak oila ma'naviyati yuksak farzandlarni voyaga yetkazadi. Oilalarda farzandlarni ilm, hunar olishga undasa, bu boradagi istaklarini qo'llab-quvvatlasa, jismonan barkamol bo'lishi uchun sportga qiziqirsiz yoki qiziqishini rag'batlantirsiz ham ma'nan, ham jismonan yuksalishiga zamin yaratiladi.

Muhtaram prezidentimiz ham oila haqida **“Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'iy nazar, kim bo'lishidan qat'iy nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zinning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”**<sup>4</sup>, degandilar.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki**, oilaning asosiy vazifalaridan biri xalqqa, jamiyatga fidoyi, komil insonlarni yetishtirib berishdan iborat. Sog'lom muhitda ulg'aygan bolalarda o'zbek xalqiga xos sharqona odob-axloq, bag'rikenglik, mehr-oqibatlilik, milliy mafkuraviylik, insonparvarlik, adolat kabi ezgu fazilatlariga ega ma'nan yetuk bo'lib yetishadilar. Ma'naviy sog'lom insonlar hamisha yurt tinchligi, osoyishtaligi, uning ravnaqi uchun qayg'uradilar. Jamiyatimiz tayanchi bo'lgan oilalar nafaqat ertangi kun shaxslarini tarbiyalab voyaga yetkazadilar, balki xalq uchun, insoniyat uchun yordami tegadigan insonlarni ham shakllantiradilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mustahkam oila yili” davlat dasturi to'g'risidagi 27.02.2012-yildagi 1717-sonli qarori.
2. H.I. Yodgorova, A. Qayumov. (2021). Oila – jamiyatimiz mustahkam tayanchi. SCIENTIFIC PROGRESS. Vol.2, Issue 1, 1057-1062-betlar.
3. Ch. Sulaymonova, D. Ergasheva. (2023). Oila farzand tarbiyasi. “SCIENCE AND EDUCATION” SCIENTIFIC JOURNAL. Vol.4, Issue 5, 1089-1094-betlar.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

<sup>4</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>